

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQARO ADABIYOT, SAN‘AT,  
MADANIYAT VA IJTIMOIIY FANLAR AKADEMIYASI**

**MA‘MUN UNIVERSITETI NTM**



**“MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY VA NAJMIDDIN  
KUBRONING ISLOM SIVILIZATSIYASIDA  
TUTGAN O‘RNI”**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi**

**Urganch – 2025**

**UO‘K 008:28-335(08)**

**74.04+86.38**

A 31

Adilov, Z.Y.

Mahmud az-Zamahshariy va Najmiddin Kubroning islom sivilizatsiyasida tutgan o'rni [Matn] / Z.Y. Adilov.-Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2025. - 612 b.

**KBK 74.04+86.38**

**Tahririyat hay'ati:** A.O.Nurjonov, S.Sharifzoda, E.M.Xudoynazarov, U.R.Matyakubov, Z.Y.Adilov, D.A.Urazbayeva, G'.Sapayev, U.S.Musayev

**Ma'sul muharrir:** f.f.d(PhD), dotsent. Z.Y.Adilov

**Taqrizchilar:** f.f.d., professor M.Safarboyev, DSc. A.Baltayev

Jahon ilm-fan taraqqiyotiga munosib xissa qo'shgan Xorazm vohasi mamlakatimiz qadimdan jahon sivilizatsiyasi o'chog'laridan biri, ilm-ma'rifat, tasavvuf falsafasi markazlaridan bo'lib, dunyo ilm-fani, madaniyati va ma'rifati rivojlanishi va shakllanishida munosib hissa qo'shib kelgan hisoblanadi. Mamlakatimiz dunyo tamaddunining ikki bosqichini boshlab bergan va buyuk allomalarni yetkazib bergan, ularning ilm-fan va ma'naviy merosidan bugungikungacha jahon hamjamiyati foydalanib kelmoqda. "Mahmud az-Zamahshariy va Najmiddin Kubroning islom sivilizatsiyasida tutgan o'rni" nomli mazkur konfrensiya, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining V-bosqichi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" bandining "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish" deb nomlangan 73-maqsadi ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etilgan.

Ushbu konferensiya to'plami mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, talaba va magistrantlar uchun foydali bo'ladi deb umid qilamiz.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari ma'suldirlar.

Konferensiya o'tkazilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 – yil 27 – dekabrda 490-sonli buyrug'iga asosan hamda ushbu konferensiyasi materiallari Ma'mun universitetining 2025-yil 29 – sentyabr 2 – sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.

**ISBN 978-9910-10-457-2**

## KIRISH SO‘ZI

Hurmatli hamkasblar!

Ta’lim-tarbiya jarayonining bugunki kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirishning asoslari ijtimoiy va falsafiy fanlarning ta’lim jarayoniga bog‘liqligiga ko‘p jihatdan bog‘liq hisoblanadi. Anjumanning asosiy maqsadi sifatida falsafa va ijtimoiy fanlar sohasini rivojlantirish hamda Xorazm vohasida ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixini o‘rta asrlar va yangi davr nuqtai nazaridan o‘rganish, Markaziy Osiyo allomalari va ularning asarlarining ijtimoiy falsafiy tahlilini o‘rganish, Najmiddin Kubro ta’limotining Tasavvuf ta’limotlarining rivojlanishidagi ahamiyati, Mahmud az-Zamahshariy qarashlarining ilm-fan rivojlanishida tutgan o‘rni, Markaziy Osiyo allomalari asarlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili, Ijtimoiy, tabiiy va aniq fanlar rivojida Markaziy Osiyo allomalarining qo‘shgan hissasi va shu yo‘nalishlar doirasidagi ilmiy muammolarni yechimlarini topish hamda sohalarga tadbiq etish, shuningdek respublikamizda ijtimoiy fanlar va falsafa sohasida bajarilayotgan ishlar bo‘yicha o‘zaro fikir almashish hamda yosh olim, magistrant, doktorant va mutaxassilarning ilmiy-tadqiqot ishlarining sifati va samaradorligini oshirish hisoblanib, ushbu tadbirda respublika yosh tadqiqotchilarning tajribalari o‘rganiladi, muhokama etiladi va ilg‘or fan yutuqlaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar yaratiladi hamda yangi ularni amaliyotda qo‘llash nazarda tutilgan bo‘lib, Respublikamizdagi ta’lim muassasalari va tashkilotlarida joriy etish bo‘yicha muammolar va ularning yechimlari bo‘yicha xulosa hamda takliflar tayyorlash.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida mamlakatimiz ta’lim tizimini isloh qilish orqali, jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalaridan oqilona foydalangan holda jahon standartlariga moslashtirish va dunyo ilm-fan sahnasida raqobatbardoshligini oshirish, mamlakat ilm-fanini har tamonlama rivojlantirish, yoshlarni davlat taraqqiyoti drayveriga aylantirish, ularning bor bilim va istedodini yuzaga chiqarishi uchun barcha shart-sharoitlarni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz ta’lim tizimini rivojlantirishning “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilgan qarorida ham har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligi alohida qayd etilgan. Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining V-bosqichi “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” bandining “Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish va keng targ‘ib etish” deb nomlangan 73-maqsadi ijrosini ta’minlash maqsadini bajarishni o‘z ichiga oladi.

Xorazm vohasi o‘zbek davlatchiligining tamal toshini qo‘yganligi bilan birgalikda, ilm-fanda taraqqiyotida ham muhim iz qoldirgan madaniy o‘lkalardan biri bo‘lib, O‘rta asrlarda Xorazm vohasida o‘zbek davlatchiligida xorazmshohlarning to‘rtta sulolasi davlatni boshqargan: Afrig‘iylar (305-995),

Ma'muniylar (995-1017), Oltintosh sulolasi (1017-1034), Anushtagin sulolasi (1097-1231). Ayniqsa, Ma'muniylar va Anushtaginiylar davrida Xorazmda ilmfan va madaniyat yuksak rivojlandi, poytaxt Gurganjda "Majlisi ulamo" tashkil topib, unda zamonasining 360 dan ortiq allomasi tadqiqot olib bordilar, Muhammad xorazmshoh davrida (1200-1221) Xorazm sharqdagi ulkan imperiyalardan biriga aylandi, ma'naviy hayotda kubraviya tariqati vujudga keldi va keng tarqaldi. O'rta asrlarda ushbu hududda mu'tazila ta'limoti keng yoyildi va uning yirik namoyandalari yetishib chiqdi. Xorazm mutafakkirlari islom sivilizatsiyasiga barakali hissa qo'shdilar. O'rta asrlarda arab tilida ijod qilgan ilm-fanning yirik namoyandalari yetishib chiqdi.

Sharq Uyg'onish davri faniga tamal toshini qo'ygan Muhammad al-Xorazmiy shu yurtning farzandidir. Uyg'onish davrining buyuk siymolari: Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolarning ilmiy faoliyati ham Xorazm bilan bog'liqdir. Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr al-Xorazmiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud al-Chag'miniy, Ismoil Jurjoniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud kabi allomalar bu davrda mashhur bo'ldilar.

Yosh va navqiron Ma'mun universitetida tashkil qilingan "Mahmud az-Zamahshariy va Najmiddin Kubroning islom sivilizatsiyasida tutgan o'rne" mavzusida respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi tashkil etilganligi, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda ota-bobolarimizning boy ma'naviy merosidan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi.

***Ma'mun universiteti ta'rischisi Nurjonov Arslon Otanazarovich***

Sulaymon Boqirg'oniy o'zidan "Oxir zamon kitobi" nomli mashhur hikmatlar to'plamini yozib qoldirgan. Ko'plab tarixchilarning fikricha, Sulaymon Boqirg'oniyning hayoti va ijodi haqidagi tarixiy ma'lumotlar turli rivoyatlar bilan aralashib ketganligi bois uni asl ilmiy-tarixiy dalillar asosida o'rganish tadqiqotchilar uchun ancha murakkablik tug'diradi. Xalq orasida "Hakim ato" nomi bilan ham mashhur bo'lgan valiy inson Sulaymon Boqirg'oniy o'z iqtidori va she'riy iste'dodi bilan Xoja Ahmad Yassaviyning e'tiborini qozongan. Hakim ato tasavvufiy tarbiya uslubini yassaviylik asosida olib borib, g'oyalari insonlar ongi va qalbiga singdirishda ham, asarlarini yozish uslubida ham o'ziga xos oddiylik va xalqchilikka katta e'tibor qaratgan. Shuning uchun u zotning deyarli barcha hikmatlarida yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadigan muhim pedagogik g'oyalar, axloqiy ko'rsatmalar va bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha tavsiyalar bor.

Turkiy xalqlar orasida Sulaymon Boqirg'oniy «Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi» - Xuja Ahmad Yassaviyning eng yaqin shogirdi va uning donishmandlik an'alarini yuksak darajaga olib chiqqan izdoshi hisoblanadi. Ba'zi bir tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, u kishi Janubiy Orol buyida joylashgan Boqirg'on nomli qishloqda tug'ilib o'skanligi sababli Boqirg'oniy taxallusini olgan. Sulaymon Boqirg'oniy o'zining «Bibi Maryam kitobi», «Qissasi Ibrohim Halil», «Oxirzamon kitobi» va boshqa she'r va dostonlarida ko'plab hikmatlar va lirik she'rlarni yaratgan. Bu ijod namunalari esa o'lkamiz xalqlarining madaniyati va ma'naviyatining rivojiga ta'sir ko'rsatgan.

**ABUL HASAN HARAQONIY, NAJMIDDIN KUBRO VA BAHOUDDIN  
NAQSHBANDIYNING TASAVVUF ILMI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI**

*Nishanova Dildora Komiljanovna*

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori*

*Oriental universiteti dotsenti v.b.*

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi*

*Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkillashtirish bo'limi*

*Email: [dnishanova1987@gmail.com](mailto:dnishanova1987@gmail.com)*

Tasavvuf ilmi qadimdan o'zining Robbiga yetaklovchi yo'li bilan alohida ilm tarmoqlaridan hisoblanadi. Shu sababdan tasavvufshunos olimlar oshiqni mashuqqa yetaklovchi ilm deb e'tirof etishgan.

Abul Hasan Haraqoniy, Najmiddin Kubro hamda Bahouddin Naqshbandiylarning barchasi tasavvufning yirik yo'nalishlari asoschisi bo'lish bilan birga bir qancha shogirdlar yetishtirgan ulug' allomalardir. Abul Hasan Haraqoniy o'z o'rnida Najmiddin Kubro va Bahouddin Naqshbandiyning ma'naviy otasi hisoblanadi. Dono odamlar xuddiki shamga o'xshaydi, ular tevarak-atrofnii yoritir ekan, o'zlari ham eriydi. Ular ko'zgu kabi, kishiga haqiqiy yuzini aks ko'rsatadi. Anadoluda ko'plab dono insonlar o'zlari yashagan shahar kabi mashhurlikka erishgan. Koniyani Mavlonalarsiz, Qirshohirni Ahiy Ivriyonsiz va Nevshexirni Hoja Bektoshsiz tasavvur qilish qiyin bo'lgani kabi, Qarsni Abu-l Hasan Haraqoniysiz tasavvur qilish imkonsiz [2:1383]. Shuningdek Samarqandni Moturiydiysiz, Qarshini Nasafiylarsiz, Farg'onani Marg'iloniylarsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, Buxoroni Bahouddin Naqshband va Imom Buxoriylarsiz hamda Xorazmni Najmiddin Kubrosiz tasavvur qilish qiyin. Haraqoniy, Najmiddin Kubro va Naqshband allaqachon butun dunyo musulmonlari uchun faxr hamda umumiylik kasb etgan fenomen sifatida shakllanib ulgurgan.

XI asrning boshlarida, turklar hali to'liq Anadoluga kirib kelmagan davrda, Abu-l Hasan Haraqoniy Qarsda yashagan va turli din vakillari bilan hamkorlik qilgan. Uning asosiy maqsadi odamlarni Allohga ishontirish va ularning ehtiyojlarini qondirish bo'lgan. Uning mashhur so'zlari shunday: "Ey Alloh! Har qanday vaziyatda ham sening va sening Rasulingning quli bo'lib qolaman"[3:332-336].

Anadoluni islomlashtirish kurashida hayotini ham fido qilgan bu buyuk mutasavvif hozirda ham asosiy bir nishon vazifasini bajarmoqda va asrlar oldin yashagan bo'lishiga qaramasdan,

aytgan hikmatli so'zlari va tarbiyalagan shogirdlari orqali hanuz bugungi kunga yorug'lik sohib turibdi [4:32].

Abulhasan Haraqoniyning mutasavvuf zamondoshlari ham ko'p bo'lgan. Ular qatoriga Abulqosim Kushayriy, ustozi Abul Abbas Qassob va Abusaid Mehnaviy kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, uning xonaqohiga Sulton Mahmud G'aznaviy kelib turgan. Hamda Abu Ali ibn Sino bilan muloqotlar qilib turgan. "Kashf ul-mahjub" asarida, muallif Ali ibn Usmon Xujviriy tasavvuf vakili Abulqosim Kushayriyning ushbu so'zlarini yozib qoldirgan: "Men shayx Abulhasanni ziyorat qilish uchun Haraqonga bordim. Huzuriga kirganimda, uning buyuklik ufurib turgan haybatidan va o'tkir nigohidan shunday taassurot oldimki, tilim lol bo'lib, gapirolmay qoldim. Hattoki, Yaratganning oldida biror gunohim bo'lsa, U meni jazolayaptimikan, degan xayolga ham bordim". Abul Abbas Qassob aytganki: "Haraqoniy tasavvufga ikki yangi talabni, ya'ni safarlar va ziyoratlar qilib turish zarurligini kiritdi"[6]. Abulhasan Haraqoniy falsafiy ruboiylar ham yozgan bo'lib, quyida ularning birini keltiraman.

Azalning sirini na sen bilursan va na men,

Bu asar harfini na sen bilursan va na men.

Pardaning orqasi suhbat joyimiz, gar bilsang –

Parda tushib ketsa, na sen qolursan va na men [6].

Xorazm o'lkasi haqida gap ketganda, albatta Najmiddin Kubro siymosi insonlar ongida gavdalanadi. Nafaqat sarkarda, balki buyuk alloma bo'lgan Najmiddin Kubro 1145-yil Xiva shahrida dunyoga kelgan. U Xorazmda madrasani tugatgach, o'n olti yoshlarida o'z bilimini oshirish maqsadida zamonasining katta ilm-ma'rifat markaziga aylangan Eron, Misr, Shom va Iroq mamlakatlarida bo'lib, hadis va fiqh ilmi bilimdonlaridan kerakli bilimlarni oladi. Alloma qalbida ruhiy ma'naviy kamolotga, g'ayb asrori, karomat va kashf-u hol ilmi hisoblanmish tasavvuf ta'limotiga ishtiyok zo'r edi. Shu bois u shariat ilmlarini o'rganish barobarida tariqatdan ham xabardor bo'lishga intilib, qator shayxlar, darveshlar suhbatida bo'ladi, xonaqalarda xilvat o'ltirib, riyozat bilan mashg'ul bo'ladi[5]. Shayx Najmiddin Kubroning o'nga yaqin asarlari fanga ma'lum. Uning, ayniqsa, «Al-usul al-ashara» («O'nta usul»), «Favoyih ul-jamol va favotih ul-jalol» («Jamol xushbo'yliklari va jalolning kashfi»), «Risolat ul-hoif ul-hoim an lavmat il-loim» («Qo'rquvchi ovvoralar va malomat etguvchi malomatiylar haqida»), «Tafsir», «Sharh us-sunna val-masolik» («Sunna va ezguliklar sharhi») kitoblari mashhur. Kubro o'z asarlarini asosan arab tilida yozgan. Faqat boshlovchi so'fiylar uchun qo'llanma sifatida yaratilgan «Fi odob us-solikin» («Soliklar odobi haqida») asari va ruboiylarini forsiyda bitgan. Ba'zi bir tadqiqotchilar Kubroning «Ruboiylar» kitobi ham mavjudligi to'g'risida ma'lumot bergan bo'lsalar-da, bu noyob to'plam hali topilgan emas. Biz faqat atoqli sharqshunos Ye.E. Bertels tomonidan Kubro qalamiga mansubligi taxmin qilinib, turli tazkira va bayozlardan tanlab olingan va olimning «Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti» kitobida keltirilgan 25 ta ruboiygagina egamiz [6]. Eronda nashr etilgan «Ruboiynoma» to'plamida ham shayx-shoirning 8 ta ruboiysi keltirilgan bo'lib, ulardan faqat bittasi Ye.E. Bertels keltirgan ruboiylar orasida uchramaydi[6]. Demak, hozirgacha bizga buyuk vatandoshimiz ijodiga tegishli 26 ta ruboiy ma'lum.

Markaziy Osiyoda XIV asrdayirik tasavvufiy "Naqshbandiya" tariqati paydo bo'lgan. Bu tariqat Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband nomi bilan bog'liqdir. Naqshband 1318-yilda Buxoro yonidagi qasri Hinduyon qishlog'ida tug'iladi [1:12].

Naqshband ta'limotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlik yotadi. Shunga binoan, Bahouddin Naqshband umri bo'yi dehqonchilik bilan kun kechirgan, o'z qishlog'ida unchalik katta bo'lmagan yeriga bug'doy va mosh ekar ekan, u uyida hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan. Qishda qamishlar ustida, yozda esa bo'yra ustida yotib kun kechirgan. Uning uyida hech qachon xizmatkor ham bo'lmagan. Hazrati Naqshband butun umrini o'z xohishi bilan faqirlik va yo'qsillikda o'tkazgan. Zero, bu tariqatning asl aqidasi — "Dil ba yor-u, dast-ba kor" — ya'ni "doimo ko'ngling Allohda bo'lsin, qo'ling esa mehnatda", degan g'oyani ilgari suradi.

Uch tasavvuf yo'nalishlarining g'oyasi bir- Robbiga yetish, ammo unga borar yo'l turlicha ifodalangan.

Haraqoniylik	Kubroviylik	Naqshbandiylik
Zikri qalbiy	Zikri jahriy	Zikri xufiy
Insonparvarlik, ochiqlik	Uzlat va jamiyatdan uzilish	Jamiyatda faol turmush tarzi
Mehr-shavqat	Riyozat, ruhiy tarbiya	Halol mehnat
Keyingi tariqatlarga asos bo'lib xizmat qilgan.	Movarounnahr va Xurosonda tarqalgan.	Dunyo bo'ylab tarqalgan.

Haraqoniylik safar, ziyorat hamda mehmondo'stlik orqali insonlar qalbiga islomga muhabbatni singdirish, shariyat va tariqatni uzluksiz bog'liq holda amaliyotga tadbiiq etish g'oyasini ilgari surib, muridlariga insonparvarlik, odob-axloqqa e'tibor qaratish uqtrilgan. Zikr amaliyoti jamoabiy tarzda emas, qalbiy zikr ilgari surilgan.

Kubroviylikda muridlar uzlatga chekinib, ochlik bilan zikri jahriy orqali ruhiy poklanishga erishish g'oyasini ilgari surgan. Murid tarbiyasida shayxning maqomi ustunligi va karomati ruhiy tarbiya jihatidan asosiy o'rinda turgan. Vahdatul vujud falsafaiy g'oyasi mavjud.

Nashbandiylik shariatga qat'iy amal qilgan holda sodda hayot tarzini ilgari suradi. Uning shiori "Dil ba yoru dast ba kor" ("Qalbing Alloh bilan qo'ling mehnat bilan") bo'lib, mazkur tariqat yo'nalishiga kirgan shaxs jamiyatdan ajralmagan holda halol mehnat bilan oddiy hayot tarzida yashashi mumkinligi bilan boshqa tariqat yo'nalishlaridan ajralib turadi. Ibodatdagi zikr zikri xufiy (ovoqsiz zikr) tarzda amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinmi, tariqatning yo'nalishlarining asosiy go'yasi Robbiga ruhiy poklangan holda yetishish, unga borar yo'l turlicha izohlangan. Kubroviylik va Naqshbandiylik bir diyorda paydo bo'lgan bo'lsa-da, ikkisi ham o'z davrining yetuk allomalarining ilmiy, amaliy, tasavvufiy merosi bo'lib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hira A. Ebu'l-Hasan el-Harakânî'nin tasavvuf anlayişında fenâ kavrami/The Concept of Absence in The Abu Al-Hasan Al-Haraqani's Understanding of Sufism //Kafkas Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. – T. 1. – №. 1.

2. Öztürk E., Kartal A., Celep H. Sufis Identified With Their Cities: Kars-Abu'l-Hasan Kharakanî (Contributions Of Kharakani Stories To Social Document And Social Integration of Kars) //International Journal Of Eurasia Social Sciences. – 2017. – T. 8. – №. 30. – S. 1383-1395.

3. Normatova D. Tasavvuf g'oyalarining yoyilishi va ularning ma'naviy-ahloqiy ahamiyati //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – T. 33. – S. 332-336.

4. Seyhan A. Ebu'l-Hasan el-harakânî'nin tasavvuf ve şehitlik anlayışı/understanding of the mysticism and the martyrdom of Abu'l-Hasan el-Kharakani //Kafkas Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. – 2014. – T. 1. – №.1.

5. Oyina

6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/ozod-momin-xoja-shayx-abulhasan-haraqoniy-haqida-risola.html>

## BOBOJON SANOIYNING MA'NAVIY MEROSI VA UNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

*Sapayev G'ulomjon Baxtiyarovich*

*Ma'mun universiteti "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi dotsenti, f.f.d. (PhD)*

**Аннотация:** Мақолада XIX аср Хоразм маърифатчилиги ва таржима мактабининг йирик вакили **Бобожон Санойининг** маънавий мероси, унинг ижодини ўрганиш ҳамда тадқиқ қилишнинг аҳамияти ёритилган.

**Калит сўзлар:** Bobojon Sanoiy, ma'rifatparvar, tarjima maktabi, "Kanz ul-maorif", "Hadiqai azhor", komil inson, tasavvufiy qarash.

## MUNDARIJA

## I SHO‘BA. O‘RTA ASRLARDA ILM, FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTI O‘ZIGA XOS TOMONLARI

<b>Nurjonov A.O.</b> Kirish	<b>3</b>
<b>Adilov Z.Y.</b> YANGI O‘ZBEKISTONDA TARAQQIYOT STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA AZ- ZAMAXSHARIY G‘OYALARINING O‘RNI	<b>9</b>
<b>Исақова З.Р.</b> X-XIII АСРЛАРДА ТАСАВВУФНИНГ ШАКЛЛАНИШИ, ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ВА ТАЪСИР ДОИРАСИ	<b>11</b>
<b>Шарипова О.Т.</b> ИНСОНШУНОСЛИК ТАЪЛИМОТИ	<b>15</b>
<b>Ro‘zmatzoda Qodirqul.</b> HOJAMNAZAR HUVAYDO TASAVVUFYI G‘OYALARINING MARKAZIY OSIYO XALQLARI MA‘NAVIY HAYOTIDAGI O‘RNIGA DOIR	<b>18</b>
<b>Менгқобилов А.</b> МАХМУД АЗ-ЗАМАХШАРИЙ АСАРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ИСЛОМ ЦИВИЛИЗАЦИЯСИДА ТУТГАН УРНИ	<b>24</b>
<b>Saifnazarov I.</b> NAJMIDDIN KUBRONING IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARI	<b>27</b>
<b>Зияев А.А.</b> ЎЗГА ЮРТДА «ҒАРИБЛИК ҒУРБАТИНИ ТОРТҚОН» СУЛАЙМОН БОҚИРҒОНИЙНИНГ «ВАТАН СОҒИНЧИ» ҲАҚИДА ЁЗГАН ҲИКМАТЛАРИ ХУСУСИДА	<b>30</b>
<b>Masharipova G.K va Rzayeva A.A.</b> YOSHLAR TARBIYASIDA SHAYX NAJMIDDIN KUBRONING VATANPARVARLIK RAMZI	<b>38</b>
<b>Rasulov R.O.</b> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY MEROSI VA ISLOM SIYOSIY-MAFKURAVIY TAFAKKURINING SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI	<b>42</b>
<b>Safarboyev O.M.</b> SAVOB ISHNING ERTA-KECHI BO‘LMAYDI	<b>45</b>
<b>Tursunkulova Sh.T.</b> GAZZOLIYNING “EY FARZAND” ASARINING FALSAFIY MOHIYATI	<b>49</b>
<b>Sharipov A.K.</b> ABU ALI IBN SINONING JISMONIY HARAKATLARGA OID QARASHLARI: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY AHAMIYAT	<b>52</b>
<b>Jabborov I.J.</b> NAJMIDDIN KUBRO ASARLARIDA AXLOQ VA ODOBGA OID QARASHLARNING AKS ETISHI	<b>54</b>
<b>Sultonov O.S.</b> UCHINCHI RENESSANS G‘OYALARI ASOSIDA TALABA-YOSHLARDA IJTIMOY MAS‘ULIYAT HISSINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARINI ISHLAB CHIQUISH	<b>57</b>
<b>O‘razmetov M.T.</b> TASAVVUF TA‘LIMOTI TARIXIDA SULAYMON BOQIRG‘ONIYNING O‘RNI VA ROLI	<b>59</b>
<b>Nishanova D.K.</b> ABUL HASAN HARAQONIY, NAJMIDDIN KUBRO VA BAHOUDDIN NAQSHBANDIYNING TASAVVUF ILMI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI	<b>61</b>
<b>Sapayev G‘.B.</b> BOBOJON SANOIYNING MA‘NAVIY MEROSI VA UNI O‘RGANISHNING AHAMIYATI	<b>63</b>
<b>Вахабова Д.Р.</b> ОСНОВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ФИЛОСОФСКОЙ НАУКИ В ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОМ РЕГИОНЕ В СРЕДНИЕ ВЕКА. (IX–XII В)	<b>66</b>
<b>Ostonov U.S.</b> МАҢҒИТЛАР ҲУҚМРОНЛИГИ ДАВРИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИЖТИМОЙ ИСЛОҲОТЛАР “ТАРИХИ ХУМУЛИЙ” АСАРИДА	<b>70</b>
<b>Abduqahorov A.</b> SHARQ UYG‘ONISH DAVRI OLIMLARI: O‘RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARINING ILMIY MEROSI	<b>74</b>
<b>Jo‘rayev M.X.</b> MOVAROUNNAHRNING IV/X ASRDAGI DINIY-MAFKURAVIY MUHITI VA ILMIY MARKAZLARI	<b>76</b>
<b>Shoyimov S.S.</b> O‘RTA ASRLARDA ILM, FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTI O‘ZIGA XOS TOMONLARI	<b>81</b>
<b>Xamrakulova M.Sh.</b> FAROVONLIK TUSHUNCHASINING TARIXIY SHAKILLANISHI: SHARQ FALSAFIY MEROSI ASOSIDA	<b>83</b>
<b>Normammedov O.</b> O‘RTA ASR MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARI MEROSI VA XALQARO HANKORLIK TAMOIYILLARI: FORBIY, BERUNIY, ZAMAXSHARIYNING ILMIY-FALSAFIY MEROSI TAHLILI	<b>85</b>
<b>Usmonova S.U.</b> O‘RTA ASRLARDA ILM, FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTI O‘ZIGA XOS TOMONLARI	<b>91</b>
<b>Qurbonova D.M.</b> NAJMIDDIN KUBRONING ISLOM SVILIZATSIYASIDA TUTGAN	<b>94</b>

<b>O'RNI</b>	
<b>Rahmatov M.A.</b> O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYODA ILM-FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTI: ALLOMALAR MEROSI, ILMIY MAKTABLAR VA ULARNING JAHON SIVILIZATSIYASIGA TA'SIRI	<b>96</b>
<b>Kopalboyeva L.B.</b> IX–XII YÜZYILLARDA BILIM VE KÜLTÜR MERKEZLERI	<b>98</b>

**II SHO'BA. NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTINING TASAVVUF TA'LIMOTLARNING RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI**

<b>Сафарбоев М.</b> ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК БАДИИЙ АДАБИЁТИДА НАЖМИДДИН КУБРО ОБРАЗИНИНГ ЯРАТИЛИШИ	<b>101</b>
<b>Комил Хоразмий (Комил Жуманиёзов).</b> ШАЙХ НАЖМИДДИН КУБРОНИНГ КАРОМАТЛАРИ ХУСУСИДА	<b>105</b>
<b>Исақова З.Р.</b> ШАЙХ НАЖМИДДИН КУБРО РУБОЙЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ ИНТЕРПРЕТАЦИЯСИ	<b>107</b>
<b>Masharipova G.K.</b> KUBROVIYA TA'LIMOTI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	<b>115</b>
<b>Jaborov I.J.</b> SHAYX NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA NAFS TARBIYASI TALQINI	<b>121</b>
<b>Salayev T.K.</b> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTINING JISMONIY TARBIYA VA JISMONIY TAYYORGARLIKDA TUTGAN O'RNI	<b>123</b>
<b>Бекташева А.</b> НАЖМИДДИН КУБРОНИНГ ТАСАВВУФИЙ-АДАБИЙ АСАРЛАРИ	<b>124</b>
<b>Tadjiyeva F.J.</b> NAJMIDDIN KUBRO MEROSINING XIVA XONLIGIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA KONFESSIONAL MUNOSABATLARGA TA'SIRI	<b>129</b>
<b>Boboyeva Z.D va Iskandarova G.F.</b> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTINING ZAMONAVIY MA'NAVIY INQIROZ DAVRIDA AHAMIYATI	<b>134</b>
<b>Masharipov Q.V.</b> NAJMIDDIN KUBRONING HAYOTI VA FAOLIYATINING FALSAFIY TAHLILI	<b>136</b>
<b>Musayev U.S.</b> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTINING BUGUNGI KUN YOSHLARINI TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI	<b>139</b>
<b>Sultanov O.S.</b> G'ARB UYG'ONISH DAVRI IJTIMOY MAS'ULIYATIGA DOIR ILMIY QARASHLAR VA ULARNING YOSHLAR TARBIYASIDA AKS ETISHI	<b>142</b>
<b>Vohidova D.V va Nuriddinova R.Z.</b> NAJMIDDIN KUBRONING TASAVVUFIY-IRFONIY QARASHLARI MOHIYATI	<b>144</b>
<b>Qosimova M.Sh.</b> MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY ILMIY MEROSI VA UNING ZAMONAVIY ILM-FAN RIVOJLANISHIGA TA'SIRI: TILSHUNOSLIK, MANTIQ VA TAFSIR ILMLARI MISOLIDA	<b>148</b>
<b>Рахматхонов А.Ж.</b> НАЖМИДДИН КУБРОНИНГ ҲАЁТИ, ФАОЛИЯТИ ВА ТАЪЛИМОТИ	<b>150</b>
<b>Abdumurodova M.P.</b> MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIY VA NAJMIDDIN KUBRONING ISLOM SIVILIZATSIYASIDA TUTGAN O'RNI	<b>153</b>
<b>Xusnullayeva M.F.</b> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTINING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIDAGI AHAMIYATI	<b>155</b>
<b>Makhmudova S.I.</b> NAJMIDDIN KUBRO - MARDLIK VA MATONAT TIMSOLI	<b>157</b>
<b>Xayrullayrva D.N.</b> NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTINING TASAVVUF TA'LIMOTLARNING RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	<b>159</b>
<b>Masharifova Sh.</b> NAJMIDDIN KUBRO QARASHLARIDA VATANPARVARLIK VA INSONPARVARLIK G'OYALARINING UYG'UNLIGI	<b>161</b>
<b>Zaripova M.Z.</b> NAJMIDDIN KUBRO TASAVVUFIY QARASHLARIDA AXLOQIY TARBIYA VA KOMIL INSON G'OYASI	<b>164</b>